

## ONA TILI DARSLIKLARIDAGI LUG'ATLARDAN FOYDALANISH VA ULARNING O'QUVCHILAR NUTQIDA AHAMIYATI

*Sotimboyeva Dilnura Axmedjon qizi*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti*

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

*dilnurasotimboyeva@gmail.com*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada umumiyo'rta ta'limga darslikida lug'atlarning ahamiyati haqida so'z yuritiladi. O'quvchilarning nutqiy kompitensiyasini oshirishda lug'atlarning o'rni xususida mulohaza qilinadi. Lug'atlarni tahlil qilishda o'rganish obyekti sifatida 5-sinf ona tili darsligi misol qilib olinadi.

**Kalit so'zlar:** leksikografiya, ijtimoiy, odamiylik, ma'rifat, mezon, tamal toshi

### АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о значении словарей в учебниках общего среднего образования. Обсуждается роль словарей в совершенствовании разговорной компетентности студентов. При анализе словарей в качестве примера взят учебник родного языка для 5 класса.

**Ключевые слова:** лексикография, социальное, гуманность, просвещение, критерий, краеугольный камень

### ANNOTATION

This article talks about the importance of dictionaries in general secondary education textbooks. The role of dictionaries in improving students' speaking competence is discussed. In the analysis of dictionaries, the 5th grade native language textbook is taken as an example.

**Keywords:** lexicography, social, humanity, enlightenment, criterion, foundation stone

### KIRISH

Bilamizki, hozirgi kunda ta'limga sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning pirovardida mamlakatimizni rivojlantirish va dunyo tan oladigan davlatlar qatoriga kirish turibdi. Mamlakat rivoji uchun yoshlarning ta'limga olishlariga e'tibor qaratilishi lozim. Umumiy o'rta ta'limga o'quvchilarni kreativ va mustaqil fikrashga yo'naltirish, ularga milliy o'zlikni tanitgan holatda vatanga muhabbat uyg'otish, ongida ma'naviy-marifiy inqilob paydo qilish, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotning har jabhasida o'zbek tilidan, ya'ni o'z ona tilidan erkin va o'rinli foydalana olishi, tilning cheksiz imkoniyatlaridan bahramand bo'la olishi uchun ona tili ta'liming o'rni beqiyosdir. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridan ta'limga alohida e'tibor berila boshlandi. Davlat ta'limga standarti qabul qilinib,

darsliklar ham shunga monand tuzila boshlandi. Keyinchalik esa Milliy o'quv dasturi yaratilib, to'g'ri o'qish tizimidan spiralsimon tizimga o'tildi. Endi ona tili darsliklardagi topshiriqlar orqali nutqiy kompitensiyalarni shakllantirishga e'tibor qaratildi. Nutqni shakllantirish uchun kerak bo'ladigan vositalardan biri-lug'atlarga ehtiyoj ortishi sababli darsliklarga endi lug'atlar va lug'at bilan bajariladigan topshiriqlar kirkizildi.

### ASOSIY QISM

Ona tili darsliklarida lug'at bilan ishslash birinchi bo'lib, 2020-yil N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Sattorov, Sh.Toshmirzayeva, D.Mannopovalar tomonidan umumiy o'rta ta'lif maktablarining 5-sinf uchun mo'ljallangan darslikdan boshlandi. Bu darslikning alohida xususiyatlaridan biri unda Davlat ta'lif standarti va Milliy o'quv dasturida ko'rsatilgan har ikkalasidagi tamoilga asoslangan holatda yaratilganligidir. Darslikda grammatik qoidalardan voz kechilmagan holatda ammo Milliy o'quv dasturida ko'rsatilgandek savol va topshiriqlar ko'rsatib o'tilganligini guvohi bo'lamiz.

5-sinf Ona tili darsligining birinchi mavzusining sarlavhasiga „Tilning ijtimoiy ahamiyati” deb yozilgan va pastida ijtimoiy degan so'zga quyidagicha ta'rif berilgan: „Ijtimoiy- inson va jamiyat hayotiga oid”[1]. Bu so'zni o'quvchilar tushungan holatda mavzuni to'liqroq anglab yetadilar. Endilikda ular tilning inson va jamiyat hayotidagi o'rni ekan deya fikrlab mavzuga ijobiy yondashadilar. Demak, darslikda lug'atlarni va ularning ma'nosi berishi o'quvchiga mavzuni tushunishni osonlashtiradi va lug'at boyligini oshiradi. Ikkinchi mavzuda „nufuz” so'ziga izoh berilib, shundan keyingi 7-mashqda nufuz leksemasiga sinonim bo'la oladigan mavqe so'zi keltirilgan. Demak, lug'atlarning yana bitta foydali xususiyatlari o'quvchilar sinonimidan ham foydalana olishni o'rghanadi. Keyinchalik o'quvchilar og'zaki va yozma nutqida ham o'rgangan lug'atlaridan keng ko'lamda foydalana oladi. Darslikda matn va lug'at ustida ishslash bo'yicha ham mavzular keltirilgan. Misol uchun „Odamiylik” sarlavhasi ostidagi matnni oladigan bo'lsak, bu matndagi barchamiz ishlatadigan lekin ma'nosini o'quvchi anglab yetmagan so'zlarni lug'at shaklida berilgan.

Odamiylik	Odamga, chin insonga xos xislatlar
Ma'rifat	Bilim, fan; ma'lumot, tanishish
Mezon	O'lchov
Tamal toshi	Poydevor

Darslikning har bir mavzusiga lug'at bilan ishslash prinsipi singdirilgan. Hozirgi kunda darsliklardagi o'zgarishlar o'quvchilarni ona tili faniga qiziqish uyg'ota oldi. Avvallari ona tili fani yuqori sinflarda testlardan, imtihondan o'tish uchun tushunsa-tushunmasada grammatikani yodlash uchun kerak bo'lган. Bu yodlashlar o'quvchini zeriktirib qo'yishi tabiiy holat edi. Shu zerikishlarni yo'qtish maqsadida umumiy o'rta ta'lif maktablari uchun darsliklarning mazmuni, dizayni o'zgartirildi. 2025-yilgacha

yangi darsliklar ishlab chiqish masalalari respublika miqyosida o'tkazilgan seminarlarda muhokama qilindi. 5-sinf ona tili darsligi namuna sifatida chiqarilib, talabni oqlagani sababli hozirgi kunda yangi avlod darsliklari chiqarilishi davom etyabdi. Yangi avlod darsliklarida lug'atlar bilan ishlash o'quvchilarga quyidagi bilimlarni bera oldi:

- O'quvchilarni notanish so'z va iboralar bilan tanishtirish;
- O'quvchilarining so'zning yangi ma'nolari bilan tanishtirish;
- O'quvchilar tilida kam qo'llaniladigan so'zlar ma'nosi ustida ishlash;
- Yangi paydo bo'lgan so'z ma'nolari ustida ishlash;
- Grammatik atamalar ma'nosi bilan tanishtirish [2]

### XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchilar uchun lug'at bilan ishlash hayotiy zaruriyatga aylanib qolgan. O'quvchilar ko'p ma'noli so'zlarni bir ma'nosini tushunsa, boshqa ma'nosini bilmaydi. Sinonimlardan ham foydalana olish ko'nikmasini shakllantirish uchun lug'atlar bilan ishlash zarurdir. Adabiy tildagi so'zlardan foydalanish o'quvchilar nutqida kam holatda uchrasha lug'atlar bilan ishlagandan so'ng so'zlar ma'nosini tushunsa, uni o'z nutqiga olib kirishi osonlashadi. O'qituvchilar o'quvchilarda lug'at bilan ishlash malakasini shakllantirsalar yuqori natijaga erishiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Sattorov 5-sinf ona tili darsligi G'afur G'ulom nomidagi nashriyoti. Toshkent-2020 [1]
2. Mirtojiyev M. O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi, Toshkent,2000 [2]
3. Mahmudov N. So'z sandiqchasi. –Toshkent: G'afur G'ulom, 2016
4. G'afforova T. va.b. „Ona tili”, T., „O'qituvchi”, 2001-yilgi nashr